

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
TARBIYACHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.**

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



Urganch davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lismi va

tabiiy fanlar kafedrasini o'qituvchi

Yusupova Shoxida Xusainovna.

shohidayusupova549@gmail.com

Tel raqam: +998974608022

Urganch davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lismi yo'nalishi

2-kurs talabasi Egamova Shaydo

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lismi tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlanish masalalari yoritilgan. Maqolada kreativ kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta'limdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoni yechish ko'nikmalari, innovatsion metodlardan samarali foydalanish orqali tarbiyachilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari ochib beriladi.

Maqolada kreativ kompetentligini rivojlanishda ta'lim texnologiyalari, AKT vositalari, integrativ yondashuv va interaktiv metodlarning o'rni alohida ko'rib chiqiladi. Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini rivojlanishga xizmat qiluvchi usullar, mashg'ulotlar va psixologik-pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kreativ kompetentlik, bo'lajak tarbiyachi, maktabgacha ta'lismi, ta'lim texnologiyalari, ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING THE CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATORS



Abstract

This article addresses the issues of forming and developing the creative competence of future preschool educators. It analyzes the essence and content of the concept of creative competence, as well as its role and significance in modern education. Theoretical and practical foundations for preparing educators through fostering creative thinking, creative approaches, problem-solving skills, and effective use of innovative methods in the pedagogical process are revealed.

The article highlights the role of educational technologies, ICT tools, integrative approaches, and interactive methods in developing creative competence. Methods, activities, and psycho-pedagogical conditions that contribute to the development of the creative potential of future educators are examined.

Keywords: creative competence, future educator, preschool education, educational technologies, creative thinking, innovative approach.

Hozirgi davr innovatsion yondashuvlar bilan ajralib turadi va bu holat ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida bolalar bilan ishlashda pedagoglardan yangicha fikrlash, ijodiy yondashuv va kreativlik talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining rivojlanishiga qaratilgan Harakatlar strategiyasida ham uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu bois, interfaol ta'lim metodlariga asoslangan holda pedagog va tarbiyachilarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kreativlik atamasi ingliz tilidagi "create" (yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, insonning yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini,



shuningdek, an'anaviy fikrlash usullaridan farqli o'laroq muammolarga noodatiy yondashish imkonini beradigan ijodiy salohiyatini anglatadi. Bu — shaxsnинг mustaqil fikrlash va yangicha yechimlar topishga tayyorligi bo'lib, ijodkorlik iqtidorining muhim komponenti hisoblanadi. Ta'lim jarayonida kreativlik o'quvchilarining o'z fikrlarini erkin ifoda etishi, yangi bilim va ko'nikmalarни yaratishida, shuningdek, muammolarni innovatsion usullar bilan hal etishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bois, ta'limda kreativlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish va yoshlarning ijodiy salohiyatini to'la ochishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda ayniqsa bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki ular bolalarning dastlabki ijodiy tajribalarini shakllantiruvchi asosiy shaxslar hisoblanadi.

Kreativ kompetentlik — bu shaxsnинг yangicha fikrlash, nostandart yondashuvlar orqali muammoni hal qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish va ulami amaliyotda qo'llashga tayyorlik darajasini ifodalovchi muhim psixologik-pedagogik sifatdir. Bu tushuncha ikki asosiy tarkibiy qismini qamrab oladi:

- Kreativlik – yangilikka intilish, ijodkorlik va noodatiy fikrlash qobiliyatidir;
- Kompetentlik – bilim, ko'nikma va malakalarining amaliy faoliyatda qo'llanilishi orqali samarali natijaga erishish salohiyatidir.

Shunday ekan, kreativ kompetentlik bu nafaqat ijodiy fikrlay olish, balki bu fikrlarni amaliy muammolarni hal etishda samarali qo'llay olishni ham nazarda tutadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida shaxsiy yondashuv, ijodkorlik va innovatsion fikrlash muhim tamoyillardan biriga aylangan. Shuning uchun tarbiyachilarining kreativ kompetentligi quyidagi jihatlarda muhim rol o'ynaydi: ta'lim jarayonining sifatini oshirish, ya'ni kreativ kompetentlikka ega tarbiyachi har bir bolaga individual yondasha oladi, darslarda jonlilik va qiziqishni uyg'otadi; ijodiy muhit yaratish orqali bolalarning tabiiy qiziqishi va izlanishga bo'lgan ehtiyojini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ularning ijodiy salohiyatini

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



ochishga xizmat qiladi; o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, ya’ni tarbiyachi zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va yangi pedagogik yondashuvlardan foydalana oladi; shuningdek, tarbiyachining professional o‘sishini ta’minlab, pedagogning o‘zini rivojlantirish, yangi g‘oyalarni tatbiq etish va yangilik yaratish salohiyatini oshiradi.

Kreativ kompetentlik maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yosh bolalar tafakkurini rivojlantirishda, pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlashda, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda va ota-onalar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishda alohida ahamiyatga ega. Shu bois, bo‘lajak tarbiyachilarini ushbu kompetentlik bilan qurollantirish zamonaviy ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda pedagogdan faqat bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish emas, balki yangicha fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoni hal etish malakalari, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi. Shu boisdan, tarbiyachilarini tayyorlash jarayonida kreativ tafakkurni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, faol o‘qitish shakllari va interaktiv usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachilarining kreativ kompetentligini shakllantirishda birinchi navbatda ularning muammoni ko‘ra olish, uni tahlil qilish va ijodiy yo‘l bilan yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak. Bunda, ayniqsa, grafik organayzerlar (masalan, Venn diagrammasi, klaster, sabab-oqibat zanjiri va boshqalar)dan foydalanish muhimdir. Ushbu vositalar orqali pedagoglar ma’lumotni vizual tarzda tashkil qiladi, o‘zaro aloqadorlikni tushunadi, fikrlashning tahliliy va mantiqiy tomonlarini mustahkamlaydi. Grafik organayzerlar yordamida muammoli vaziyatlar, turli pedagogik holatlar va ularning yechim variantlarini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, “G‘oyalar daraxti” metodidan foydalanish ham kreativ kompetentlikni shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu metod muammoni

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



ildiz (ya'ni sabablari), tana (mazmuni), shoxlar (oqibatlari) va meva (yechimlari) asosida tizimli o'rganishga imkon beradi. Talabalar muammoning kelib chiqish sabablari ustida fikr yuritadi, hozirgi holatini baholaydi, turli tarmoqlar bo'yicha oqibatlarini aniqlaydi va ijodiy yechimlar taklif qiladi. Bunday yondashuv natijasida ularning tanqidiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratish, muammoni o'ziga xos tarzda hal etish malakalari rivojlanadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishda dars jarayoniga faol metodlarni joriy etish ham muhimdir. Rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar asosida ishlash, guruhlarda interaktiv mashqlar bajarish, "Aqliy hujum", "Ertak tugatish", "Teskari savollar" kabi ijodiy yondashuvlar orqali bo'lajak tarbiyachilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, qarama-qarshi g'oyalarni muhokama qilish, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladilar. Ayniqsa, "Ertak tugatish" metodida tarbiyachilar tasavvur kuchini ishga solib, mavjud vaziyatga o'zlaricha yakun yasashga harakat qiladilar, bu esa ularning emotsional-intellektual rivojiga xizmat qiladi.

Tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va ta'limiy platformalar ham keng qo'llanilishi lozim. Masalan, muammoli topshiriqlarni yechishda virtual ta'lim muhitidan foydalanish, masofaviy jamoaviy loyihalar ishlab chiqish orqali bo'lajak tarbiyachilar real muhitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga yechim topishga o'rganadilar. Bu esa ularda kasbiy moslashuvchanlik, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish nafaqat tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlaydi, balki ularning shaxsiy sifatlarini – empatiya, madaniyatlararo muloqot, jamoada ishlash va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan ishlashda innovatsion, kreativ va samarali yondasha oladigan malakali mutaxassis sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas



va ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu jarayon nazariy bilimlardan tashqari amaliy mashg'ulotlar, interaktiv yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar orqali chuqur shakllanib, tarbiyachilarda mustaqil fikrlash, muammoni anglash va samarali yechim topish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Natijada, ular kasbiy tayyorgarlikni oshirib, bolalar bilan ishlashda ijodiy muhit yaratishga qodir bo'ladilar.

Ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun tarbiyachilarni tayyorlash dasturlariga kreativ kompetentlikni rivojlantiruvchi maxsus modullar va mashg'ulotlarni kiritish, pedagogik ta'lim muassasalarida faol va interaktiv o'quv texnologiyalaridan keng foydalanish zarur. Shuningdek, tarbiyachilarni kreativlikka yo'naltirilgan muqobil ta'lim resurslari bilan ta'minlash va ularning kreativ kompetentligini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhimdir. Bu yondashuvlar tarbiyachilarning professional o'sishiga tizimli yordam beradi, ularni yangiliklarni yaratishga va amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

Natijada, maktabgacha ta'lim sohasiga chuqur bilimli, ochiq tafakkurli, ijodiy salohiyatga ega va innovatsion usullarni qo'llay oladigan malakali tarbiyachilar yetishib chiqadi. Bu esa jamiyatda sog'lom, intellektual va har tomonlama rivojlangan avlodni shakllantirishga mustahkam poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.I.Saydullayeva.Bo'lajak mактабгача та'лим ташкilotлари тарбиyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari-Uslubiy qo'llanma-Toshkent.:2022y.
2. G.O.Ernazarova, M.Y.Yakubova, Sh.D. Oblaqulov. Kreativ pedagogika asoslari –Toshkent.: 2022-yil.
3. Xotamov.I.S. Olimov.M.K. Madrahimova.G.R. Foziljonov.I.S. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma, "Innovatsion-Ziyo", Toshkent-2022
4. Torrance E. P. The Search for Satori and Creativity. Buffalo, NY: Creative Education Foundation.1979.
5. <https://lex.uz/uz/>